

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN INDIVIDUAL ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Gulyuza Maxamataliyeva***Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Anotatsiya.** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion texnologiya, ta'lim, intellektual rivojlanish, metodika.*

Ta'limda shaxsni tarbiyalash, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, shaxs va uning o'ziga xosligi, individualligi muammosi hozirga qadar umumiy psixologiya, differensial psixologiya, shaxs psixologiyasi kabi fanlarning baxsbop va qiziqarli mavzusi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Bizningcha, individuallik shaxsning xulq-atvor sifatleri, xarakter sifatleri va ularning dinamikasi, oliy nerv sistemasi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari kabi masalalarni mazmunan ifodalab, shaxsni tadqiq etishning o'ziga xos yondoshuvini nazarda tutadi.

Dars mashg'ulotlarining jamoaviy tabiati o'quvchilar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi, ularning bilim faolligini rag'batlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, intizom, mehnatsevarlik, do'stlik va boshqa axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. Biroq, dars mashg'ulotlari jamoaviy tarzda o'tkazilsada, ta'lim va kognitiv faoliyat va o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkuri, xotirasi, aql-zakovati, qobiliyatlari, shuningdek, o'rganish motivlari va munosabatlarining individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish va dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar bilan individual ishlarni tashkil etish masalasi tug'iladi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf kishilarning yoshi va shaxsiyati rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib, u yuqori darajadagi ta'limni kafolatlashi shart. Maktab rivojlanishning turli darajalariga ega bolalarni o'qitadi va asosiy maktab har bir o'quvchiga individual o'quv dasturini taklif qila olmasligi sababli o'qituvchilarimiz individual psixologik va intellektual qobiliyatlarni hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydigan o'quv modellarini izlaydilar. Ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalarning aksariyati har bir o'quvchining individual psixologik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda bir xil talablarga, vaqt sarfiga, o'rganilgan material hajmiga qarab o'qitishning guruhliy uslubiga qaratilgan bo'lib, bu o'rganishda sezilarli natijalarga olib kelmaydi. Natijada nafaqat o'zlashtirishi

past bo'lgan bolalar, balki juda mehnatsevar bolalar ham maktabni yoqtirmaydilar. Hozirgi rivojlangan texnologiyalar davrida ta'lim muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olish o'quv jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor va kiritilayotgan sarmoyalar bugungi kun o'qituvchisi yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi va ulardan kasbiy intiluvchanlikni talab etadi.

Boshlang'ich ta'limda individuallashtirilgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Chunki, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlash zamonaviy o'quv jarayonida jadallashib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Ta'limning globalashuvi, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilayotgani ta'lim muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining roli // –T.: O'zbekiston, 2017. –48 b.
2. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohazalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. –42 b
3. Muhiddinova R. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish ahamiyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi
4. Guzal, R. (2024). Prospects for Distance Education. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 2(2), 105-108.
5. Rayimovna, A. N. (2023). Management of creative activity of primary class students. *Scientific Impulse*, 1(11), 121-126.
6. Абдукаюмова, Н. (2023). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. *Общество и инновации*, 4(5/S), 24-28.
7. Abdukayumova, N. (2023). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. *Research and implementation*, 1(3), 52-56.
8. Idrisov, M. I. O. G. L., & Oripov, O. O. O. G. L. (2022). Sport-sog'lomlashtirish turizmini oliy o'quv yurtlari talabalariga o'qitishning innovatsion texnologiyasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 224-231.



9. Oqilaxon, O. (2024). Boshlang'ich sinf oquvchilarda tabiatshunoslikka oid tushunchalarni shakillantirish. *Prospects of development of science and education*, 1(18), 14-19.
10. Ismatova, Z. A., Orifova, O. J. (2024). Tabiiy fanlar darsligida berilgan o`simliklarning xilma-xilligi mavzusini o`qitish metodikasi. *Konferensiya*, 1(1), 14-18.
11. Orifova, O. J. (2023). O`qituvchining pedagogik faoliyati davomida darslarga innavatsion yondashuvi. *Anjuman*, 1(1), 1939-1952.
12. Orifova, O. J. (2023). Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o`rni. *PSIXOLOGIYA*, 1(4), 233-239.
13. Asadovna, I. Z., & Qizi, O. O. J. (2023). Ekskursiya darslarida integrativ yondashuv asosida amaliy ishlarni tashkil etish. *Journal of marketing, business and management*, 1(10), 14-21.
14. Ismatova, Z. A.; Orifova, O. J. (2022). Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlar darsligidagi o`simlik organlari mavzusini o`qitish metodikasi. *Konferensiya*, 1(1), 344-345.